XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 21 - iyul VI-55-110-4-65-K/22 Nishon tuman hokimligi

Tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi Qonuni *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2011 y., 41-son, 448-modda)* va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ““Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012 yil 16 oktyabrdagi 295-son qarori *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2012 y., 41-42-son, 483-modda)* ijrosini ta’minlash maqsadida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo’yicha viloyat komissiyasining xulosalari va tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risidagi taklifini ko’rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y.,9-son, 320-modda)* 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nishon tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1.Tuman hokimining tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo’limi (E.Bekmurodov), kadastr agentligi Nishon tuman

bo`limi (Yo.Abdishukurov), Kadastrlar palatasi Nishon tuman filiali (A.Sayfullayev), tuman qurilish bo'limi (Sh.Safarov), tuman ichki ishlar bo'limi (Sh.Shokirov), mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi (Sh.Xujaqulova) hamda boshqa tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari nomini davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Tuman ichki ishlar bo'limi (Sh.Iskandarov) aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari aholisining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo'l belgilariga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5.Tumandagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari yangidan nomlanayotganligi munosabati bilan aholi o'rtasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

6.Davlat kadastrlari palatasi Nishon tuman filiali (A.Sayfullayev) hamda tuman qurilish bo'limi (Sh.Safarov) larga tuman hududidagi yangidan nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlari nomlari yozilgan ko'rsatkich va belgilari foydalangan peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o'rnatilishini ta'minlash topshirilsin.

7.Mazkur qaror "Nishon tongi"da e'lon qilinsin.

8.Mazkur qaror tuman hokimligining "nishonpress.uz" rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qaror ijrosini taminlash hamda nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi S.Egamberdiyev va tuman hokimining o`rinbosari U.Nabiyev zimmalariga yuklatilsin.

10.Mazkur qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **M.K.Xayitmuradov**

Xalq deputatlari Nishon tuman
Kengashining
2022 yil 21 iyuldagi
VI-55-110-4-65-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ekt joylashgan Mahalla nomi	Amaldagi nomi	Yangidan berilayotgan nomi
1	Qabriston	Ibn Sino	Yevropa	Mangulik
2	Ko'cha	Navro’z	Nomsiz	Jiloli
3	Ko'cha	Kimyogar	Nomsiz	Ziroatchi
4	Ko'cha	Balxiyak	Nomsiz	Hamyurt
5	Ko'cha	Obihayot	Nomsiz	Bekbaraka
6	Ko'cha	Shirinobod	Nomsiz	Tohir Malik
7	Ko'cha	Nuriston	Nomsiz	Xudoyberdi To‘xtaboyev
8	Ko'cha	Shodlik	Nomsiz	Ahmad Donish
9	Ko'cha	Shodlik	Nomsiz	Shohnigor
10	Ko'cha	Shodlik	Nomsiz	Darxon
11	Ko'cha	Shodlik	Nomsiz	Bepoyon
12	Ko'cha	Yoshlar Diyori	Nomsiz	Hamjihatlik
13	Ko'cha	Yoshlar Diyori	Nomsiz	Birlik
14	Ko'cha	Navbahor	Nomsiz	Nurdiyor
15	Ko'cha	Navbahor	Nomsiz	Muruvvat
16	Ko'cha	Paxtazor	Nomsiz	Xusrav Dehlaviy
17	Ko'cha	Paxtazor	Nomsiz	Yakdillik
18	Ko'cha	Paxtazor	Nomsiz	Qizg‘aldoq
19	Ko'cha	Paxtazor	Nomsiz	Yangilanish
20	Ko'cha	Obod	Nomsiz	Shukur Burxonov
21	Ko'cha	Obod	Nomsiz	Baxshiyona
22	Ko'cha	Obod	Nomsiz	Baxshiyona-1
23	Ko'cha	Yuksalish	Nomsiz	Botir Zokirov
24	Ko'cha	Ulug‘bek	Nomsiz	Muhtasham
25	Ko'cha	Nishon	Nomsiz	Bisyor